

## HUDUDLARDA GASTRONOMIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

*Abduvaliyev Abdurahim Salim o'g'li*

*Sharof Rashidov nomidagi SamDU*

*Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi magistri*

*Abdurahimabduvaliyev9868@gmail.com*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada hududlarda gastronomik turizmni rivojlantirishning strategik asoslari, mavjud imkoniyatlar va resurslardan foydalanish yo'llari, shuningdek, bu sohani diversifikatsiya qilish orqali hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar bayon etilgan. Xususan, O'zbekistonning turli hududlarida mavjud bo'lgan gastronomik meros, milliy taomlar va ularni turizm mahsuliga aylantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Gastronomik turizm, hududiy rivojlanish, milliy taomlar, turizm strategiyasi, madaniy meros.

**Kirish.** Bugungi globallashuv sharoitida turizm sohasining tarmoqlanishi va diversifikatsiyasi jadal sur'atlarda kechmoqda. Ana shunday istiqbolli yo'nalishlardan biri bu – gastronomik turizmdir. Gastronomik turizm nafaqat biror hududning milliy taomlari bilan tanishish, balki ularning tayyorlanish texnologiyasi, ingredientlarining o'ziga xosligi, tarixiy ildizlari, mahalliy madaniyat bilan uyg'unligi kabi omillarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston respublikasining har bir hududi o'ziga xos gastronomik resurslarga ega bo'lib, ularni to'g'ri strategik yondashuv orqali turizm mahsulotiga aylantirish mumkin.

Gastronomik turizm bo'yicha ilmiy izlanishda bo'lib turgan va tadqiqot natijalarini amalga oshirib turgan izlanuvchi olimlar o'zimizdan kelib chiqib aytadigan bo'lsak uni tarixiy rivojlanish bosqichlari va iqtisodiy jihatlarini chuqur o'rganishlari shart bo'lgan jihatlar ekanligini juda ham yaxshi anglab olishgan. Yaxshi anglab olishgan iborasini ishlatishimizga sabab esa har bitta tadqiqotchi ilmiy izlanishlar davomida bu sohaning tarixi va iqtisodiy ta'siri kabi iboralarga to'qnash kelishganlidir. Shaxsan biz ushu ilmiy ishimizda eng avvalo gastronomiya nima ekanligi, qanday paydo bo'lganligi, rivojlanish bosqichlari va iqtisodiy jihatlari kabilarga juda ham ko'p bora duch keldik.

Shuning uchun ham ishimizni mazmuni sanalgan gastronomik turizmning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish borasida o'zimizning mualliflik mexanizmimizni ishlab chiqdik. Ushbu iqtisodiy mexanizmning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat ekanligini ilmiy tadqiqotlarimizda ishlab chiqdik:

Gastronomik turizmni tez sur'atlarda va barqaror tarzda rivojlantirishda moliyaviy deb ataluvchi tizim muhim rolga ega. Moliyaviy tizimimiz quyidagi eng asosiy elementlardan tashkil topadi:

-subsidiyalar, davlat tomonidan gastronomik turizm sohasiga oid sanaladigan loyihalar va samarali hisoblanadigan tashabbusli planlarni moliyalashtirish uchun qaytarilmaydigan moliyaviy mablag'lar ajratiladi;

-imtiyozli kreditlar, banklar tomonidan gastronomik turizm bilan muntazam ravishda shug'ullanib kelgan tadbirkorlik obyektlari uchun juda ham qulay foiz stavkalarini o'zida mujassamlashtirgan uzoq muddatga mo'ljallangan kreditlar beriladi;

-soliq preferensiyalari, gastronomik turizm faoliyatiga bog'liq hisoblanadigan ayrim turdag'i soliqlardan ozod qilinishi va soliq stavkalari pasaytirilishi;

-gastronomik turizm sohasida faoliyat yurg'izib turgan hamda endi faoliyatini yo'lga qo'ygan ishlab chiqaruvchi tadbirkorlar, oshxona, kafe, bar va restoranlar, turizm agentliklari va kompaniyalari, agroturizm bilan shug'ullanadigan korxonalari kabi xususiy ishbilarmonlar hamda tashabbuskorlar tomonidan investitsiya kiritiladi;

-mamlakat ichida gastronomik turizm sohasi rivojlanishiga yaqindan ko'maklashish maqsad qilingan holda, jamoat tashkilotlari tomonidan turli xildagi grant loyihalar ko'rinishida moliyaviy mablag'lar ajratiladi. Bularga milliy va xalqaro nodavlat hamda notijorat tashkilotlar, turli hayriya fondlari kiradi deb izohlash mumkin;

-xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash – "Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya muassasalari gastronomik turizm sohasidagi infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, texnik yordam berish, grant va qarzlar ajratish yo'llari bilan qo'llab-quvvatlaydilar

Gastronomik turizmnинг iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirishda hamda ta'minlashda infratuzilmani rivojlantirish tizimini qo'llab-quvvatlash soha rivojida muhim ahamiyatga ega. Unda transport va logistika, turar joy hamda mexmonxona infratuzilmasi, mahalliy ishlab chiqarish infratuzilmasi, kommunal xizmatlardan foydalanish, moliyaviy ifratuzlimalar kabilarni o'z ichiga oladi. Turizm industriyasida gastro-madaniyat alohida o'rinn tutadi. Uning asosiy mohiyati milliy va mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash usullari, an'anaviy taomlarni saqlash va ularni turistlarga taqdim etish tartiblari nazarda tutiladi. Gastronomik turizm sohasi aynan gastro-madaniyat an'analari asosida rivojlanadi.

Yaqin kunlarda ushbu biz keltiradigan mexanizmni rivojlantirishga hamda takomillashtirishga yo'naltirilgan quyida ko'rsatadigan yo'nalishlar ustuvor etib belgilanishi kerak deb hisoblaymiz:

- gastronomik turizm sohasi va uning talabgorlari (gastro turistlar) uchun bosqichma-bosqich yanada qulaylashtirilgan sharoitlarni yaratilishi;
- gastronomik turizmga oid hisoblangan barcha turdag'i xizmatlar hamda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- gastronomik turizm sohasiga investitsiyalarni muntazam jalb qilib borish;
- gastroturizm markazlarining faoliyatini keskin ravishda rivojlantirish;
- gastronomik turizm bozoriga oid bo'lgan monitoring, statistika va tegishli tahlillarni yana ham kuchaytirib borish;
- oliy va professionlar ta'limda sohaning malakali kadrlarini tayyorlashni rivojlantirish hamda sifatini oshirish.

Bugungi kunda gastronomik turizm sohasi turizm industriyasining eng yosh va shu bilan eng yangi istiqbolli yo'nalishlaridan deb atasak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Gastroturizmnинг назарий асослари ва ривожланиш мексанизми кун савиравнақ топмоқда hamda takomillashib borayabdi desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Gastronomik turizm ko‘p qirrali va istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, u aholi turmush tarzini yaxshilash va iqtisodiy foyda keltirish bilan bir qatorda, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish kabilarga yordam beradi. Shular sababli ham gastronomik turizmga mamlakatlar bugungi kunda katta e’tibor qaratmoqdalar.

Iqtisodiyotning ajralmas bo‘lagi sifatida e’tirof etiladigan ishlab chiqarishda hamda iqtisodiy jihatdan mamlakatning o‘sishida gastronomik turizmning ham o‘rni beqiyosdir. Chunki ushbu sohaga turistlarni jalb etilishi va turistlarning ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xarid etishlaridagi sarf qiladigan mablag‘lari mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shiladi

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki gastroturizm va iqtisodiyot sohalarini uzviy bog‘liqligi manfaatli hamda ko‘p qirralidir. Birgina gastronomik turizm sohasi rivojlanishi butun bir mamlakatning iqtisodiy jihatda boshqa sohalarini ham rivojlantirish imkoniyatiga ega. Gastro-mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonlarini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanishi iqtisodiy o‘sishga poydevor bo‘ladi

**Xulosa.** Gastronomik turizm O‘zbekiston hududlarining iqtisodiy salohiyatini kengaytirish, madaniy merosni saqlash va xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlash vositasidir. Har bir viloyatning o‘ziga xos taomlarini strategik yondashuv bilan turizm mahsuliga aylantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, mahalliy aholi daromadi oshadi va xorijiy sayyoohlar oqimi ko‘payadi. Bu esa O‘zbekistonni gastronomik turizm markaziga aylantirish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNWTO. “Gastronomy Tourism: The Basic Concepts”, 2020.
2. Mirzayev A. “O‘zbek milliy taomlari va turizm”, Toshkent, 2021.

3. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi statistik ma’lumotlari, 2023.
4. Sultonov B.A. Gastronomik turizm klasterlarini tashkil qilishning afzallikkari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2023 yil 27 dekabr, 281-285 betlar.
5. Van der Linde, C. The Demography of Clusters - Findings from the Cluster Meta-Study. In J. Bröcker, D. Dohse & R. Soltwedel (Eds.), Innovation Clusters and Interregional Competition, 2003 (pp. 130-149). Berlin: Springer
6. Dwer L., Kim Ch. Destination Competitiveness: Determinants and Indicators. Current Issues in Tourism, 2003, Vol. 6, p.1.
7. Kandampully J. The impact of demand fluctuations on the quality of service: a tourism industry example. Managing Service Quality: International Journal, 2000.